

SHIMOLIY AFG‘ONISTON O‘ZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID
O‘LCHOV BIRLIKLARI VA ASBOBLARI NOMLARINING LEKSIKOGRAFIK
TAHLILI

A. A. Amini

TerDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi.

Tel: +998991757440. *Email:* azizamini126@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11429112>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida qo‘llaniladigan o‘lchov birliklari hamda dehqonchilik asboblari nomlari, leksikografik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ser, poycha, bisva, ho‘kiz, o‘roq, dehqon, botmon, kurak.

LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF THE NAMES OF UNITS OF MEASUREMENT
AND INSTRUMENTS RELATED TO AGRICULTURE IN THE SPEECH OF THE
UZBEKS OF NORTHERN AFGHANISTAN

Abstract. In this article, the units of measurement and the names of agricultural tools used in the speech of the Uzbek farmers of Northern Afghanistan are analyzed lexicographically.

Key words: sir, poycha, biswa, ox, scythe, farmer, batman, spade.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАЗВАНИЙ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ И
ИНСТРУМЕНТОВ, СВЯЗАННЫХ С СЕЛЬСКИМ ХОЗЯЙСТВОМ, В РЕЧИ
УЗБЕКОВ СЕВЕРНОГО АФГАНИСТАНА

Аннотация. В данной статье проведен лексикографический анализ единиц измерения, используемых в речи узбекских земледельцев Северного Афганистана и названий сельскохозяйственных орудий.

Ключевые слова: пан, пойча, бисва, бык, коса, земледелец, деничик, лопата.

Hozirgi kunda Shimoliy Afg‘onistonda yashovchi o‘zbek dehqonlari nutqida dehqonchilikka oid o‘lchov birliklari ham asboblari bilan bog‘liq ko‘plab so‘zlar faol ishlatiladi.

Dehqonlarning yer o‘lchov birliklaridan xabardorligi katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, yer hajmidan kelib chiqqan holda dehqonlarga necha soat suv berilishi aniqlanib, shunga muvofiq taqsimot qilinadi.

Shimoliy Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqida qo‘llaniladigan o‘lchov birliklari asosan quyidagilarni tashkil qiladi:

1. Yer o‘lchov birliklari: poycha, ho‘kiz, hektor (gektar, jirib, bisva).
2. Don o‘lchov birligi: botmon, g‘albur (g‘alvir), xirmon (xirman), ser, kilogramm.
3. Suv o‘lchov birligi: ho‘kiz (bir ho‘kiz suv), soat (bir soat suv), quloq (bir quloq suv) – “yer sug‘orishda bitta suvchi eplay oladigan suv”¹.

Ho‘kiz (bir ho‘kiz yer oltmish uch jirib, ya’ni bir yuz yigirma olti ming kvadrat metrga teng) o‘lchov birligi qo‘llanadi. X.Jabborovning “Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati”da: “Sug‘orishda suv o‘lchov birligi. Suv bo‘lish, ariq tozalash paytida qishloq aholisining

¹ Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. – Б. 47.

har birining yeri bitta ho‘kizning yerini ag‘darishi bilan o‘lchangan”², – deb izohlanadi. **Poycha** (bir poycha zamin, bir poycha yer shaklida) o‘lchov birligi ham qo‘llaniladi. **Bir poycha zamin** yoki **bir poycha yer** deb atalishining asosiy sababi, bu o‘lchov birligi **bir ho‘kiz yerning** to‘rtidan bir qismi bo‘lganligi, ya‘ni bir ho‘kizning to‘rtta oyog‘i bo‘lsa, shuning bir oyog‘i to‘rtidan bir qismni tashkil qilganligi uchun **bir poycha zamin** shaklida ishlatiladi. **Gektar** – hektar (bir gektar yer o‘n ming kvadrat metrga teng), X.Jabborovning “Dehqonchilik so‘zlarining qisqacha izohli lug‘ati”da: “Metrik sistemada: 10 000 kvadrat metrga teng sath o‘lchov birligi”, – deb ta‘riflanadi. **Jirib** – bir jirib yer hozirgi 2000 kvadrat metrga tengdir. **Bisva** – bir bisva yer hozirgi kunda 100 metrga to‘g‘ri keladi. Yuqorida izohlangan yer o‘lchov birliklarini ifodalovchi leksik birliklar hozirgi kunda ham Afg‘oniston shimolida yashovchi o‘zbek dehqonlari nutqida faol ishlatiladi.

Donli mahsulotlar dehqonchilikning asosiy mahsulotlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham unga taalluqli o‘lchov birliklarini ishlab chiqish va undan unumli foydalanish dehqonlar va shu soha bilan shug‘ullanuvchilar oldiga qo‘yildigan asosiy talablardan biridir. Donli mahsulotlar o‘lchov birligini ikki guruhga ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

a). Aniq o‘lchov birliklari: botmon (bir botmon bug‘doy – qirq ser, ya‘ni ikki yuz sakson kilogrammga teng), **ser**³ (bir serkovul yetti kilogrammga teng), **kay-kashkul** (bir kay bug‘doy hozirgi ikki kilogrammga to‘g‘ri keladi), **kilogramm** singar o‘lchov birliklari aniq o‘lchov birliklari qatoriga kiradi.

b). Taxminiy o‘lchov birliklari. Asosan donning taxminiy hajmiga qarab chamalanadi: **xirman** – bir xirmon bug‘doy, **g‘albur (g‘alvur)** – bir g‘albur bug‘doy shaklida.

G‘alla mahsulotlarining poya va donini ajratishda bir qator dehqonchilikka aloqador mehnat qurollaridan foydalaniladi. Mazkur asbob va vositalarni ifodalashda Afg‘oniston shimolida yashovchi o‘zbek dehqonlari nutqida **qayrog‘tosh, shoxa, o‘roq (cho‘b shoxa, temir shoxa), chig‘il, g‘albur, kurak, qanor, juvoldo‘z, qavda, do‘rg‘a, galagov, xirmontagi, bo‘ji** kabi leksemalar qo‘llaniladi. Masalan, **o‘roq** yog‘och va temirdan tayyorlangan dehqonchilik asbobi bo‘lib, undan beda, o‘t-o‘lan va g‘alla kabilar o‘rishda foydalaniladi. **Qayrog‘toshdan** esa o‘roq o‘tmay qolganda uni **tezlash**, ya‘ni o‘tkirlash uchun foydalaniladi⁴. **Chig‘il, g‘albur, Kurak** kabi mehnat qurollari g‘allani tozalash, donni somon, tosh, kesak kabilardan ajratish maqsadida ishlatiladi.

Dehqonchilikka oid so‘zlarni ish bajarish vazifasiga ko‘ra quyidagicha tasniflashni lozim deb topdik:

1. Ekin ekilgunga qadar ishlatiladigan dehqonchilik oid leksik birliklar.
2. Ekin ekilishi jarayonida qo‘llaniladigan so‘zlar.
3. Hosil olish jarayonida qo‘llaniladigan dehqonchilikka xos atamalar.

Ekin ekilishiga qadar bo‘ladigan jarayon hosil uchun muhim va ahamiyatli jarayondir.

Chunki ushbu bosqichning qanday o‘tishi dehqonchilik mahsulotlarining hosildorlik darajasini hal qiladi. Bu jarayonda dehqonchilikka aloqador ko‘plab atamalar qo‘llanilishini

² Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. – Б. 48.

³ Afg‘oniston hududida **ser** o‘lchov birligi uch xil o‘lchovni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ya‘ni **seri Mazor** o‘n to‘rt klogrammni, **seri Kobul** yetti klogrammni, **seri Hirot** esa yuz gramm o‘lchov birligini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

⁴ Ibrohim, Rahim. Farhangi o‘zbeki – dari. – Balx, 2017. – B. 476.

kuzatishimiz mumkin. Masalan, *mola*, *jo'ycha*, *ag'darmoq*, *pal-pal* kabi leksik birliklar dehqonchilik mahsulotlari ekilgunga qadar qo'llaniladigan leksemalar hisoblanadi.

Dehqonchilik mahsulotlarini ekish hamda uning yig'im-terimgacha bo'lgan jarayonlarida, ushbu sohaga aloqador bo'lgan asosiy leksemalar ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, *qo'riq*, *xishova*. X.Jabborovning "Dehqonchilik so'zlarining qisqacha izohli lug'ati"da "ekinzorlarda qorovul turishi, qo'riqchilik qilishi uchun loydan qilingan odam bo'yi balandlikdagi moslama"⁵, – deb izohlanadi. *Maysa*, *yagona*, *saray*, *qiltig'*, *boshqoq* kabi leksik birliklar asosan ushbu jarayonda ishlatiladigan atamalardandir.

Hosil olish jarayoniga taalluqli dehqonchilikka oid bir qancha leksemalarni faol qo'llaniladi. Ularga quyidagi so'zlar misol bo'ladi: *chor*, *kurak*, *navqon*, *angara*, *somon*, *poxol*, *qop* va hokazo⁶. Ushbu atamalar hosil olish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan leksemalar hisoblanadi.

Dehqonchilik asaboblari nomlarini ifodalovchi leksemalarni bajarish vazifasiga ko'ra quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratishi maqsadga muvofiq:

1. Qo'shchilikka oid asbob nomlarini ifodalovchi leksemalar: *sepal*, *traktor*, *no'pal*, *mola*, *hajdapal*, *roko'l*;

2. Sug'orish jarayonida ishlatiladigan dehqonchilik asboblari nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *mo'za*, *bel*;

3. Ekin o'rish jarayonida foydalaniladigan dehqonchilik asboblari nomlari: *qir tish*, *choriq*, *o'roq*, *qayroqtosh*;

4. Hosil olish jarayonida ishlatiladigan dehqonchilik asboblari nomlari: *tevana*, *temirshoxa*, *kurak*, *xirmontagi*, *galagov*, *qavda*, *chig'il*, *g'albur*, *juvoldo'z*.

Qo'shchilik dehqonchilikning asosiy jarayonlaridan biridir. Bu davrda qo'llaniladigan dehqonchilik asboblarni Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari misolida o'rganib, hozirgi o'zbek adabiy tili bilan qiyosladik. Q'shchilikka aloqador leksemalarni bajarish vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratishni lozim topdik:

a) yerni ag'darish madsaqida qo'llaniladigan asbob nomlari: *sepal*, *tish*, *no'pal*, *katman*, *hajdapal*;

b) yerni tekshirish maqsadida ishlatiladigan asbob nomlarini ifodalovchi leksik birliklar: *roko'l*, *mola*.

Tadqiqotlarimiz jarayonida Afg'oniston shimolida yashovchi o'zbek dehqonlari nutqida, yerni ag'darish maqsadida qo'llaniladigan dehqonchilik asboblari nomlarini ifodalovchi atamalar faol ishlatiladi. **Katman/ketmon** – yer ag'darish uchun ishlatiladigan dehqonchilik asbobi.

Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari ushbu asbobdan asosan tikan chopish maqsadida ishlatiladi. Ammo O'zbekistonda istiqomat qiluvchi o'zbeklar bu vositadan yer ag'darish uchun ham foydalanadilar. **Tish** – temirdan tayyorlangan, yerni haydashga xizmat qiladi. *Omoch*, *sepal*, *no'pal*, *hajdapal* kabi dehqonchilik asboblarning yerni kovlaydigan (ag'daradigan) qismi. *Tish* leksemasi hozirgi kunda ham Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari nutqida faol ishlatiladi. Ushbu atama o'rnida O'zbekistonda *put* so'zi ishlatiladi.

⁵ Жабборов Х. Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. – Б. 146.

⁶ Eslatma: Dehqonchilikka oid ayrim leksemalar yuqorida keltirilgan jarayonlarning barchasiga ham faol ishlatilishi yoki ikkita jarayonda qo'llanilishi mumkin. Masalan, *bel*, *etik*, *sug'orish*, *dehqon*, *ekin*, *yer* kabilar.

Shimoliy Afgʻoniston oʻzbek dehqonlari nutqida, ekin joylarini tekshlash maqsadida qoʻllaniladigan asbob nomlari bilan bogʻliq leksik birliklar mavjud. **Mola** – yogʻoch yoki temirdan yasalgan, kesaklarni maydalash hamda agʻdarilgan yerni tekislashda xizmat qiladi. Traktor yoki hoʻkiz orqasiga taqilib, agʻdarilgan yer ustidan yuritiladi. *Mola* leksemasi hozirgi kunda Shimoliy Afgʻoniston hududida istiqomat qiluvchi oʻzbek dehqonlari nutqida faol qoʻllaniladi.

Qoʻshchilikka oid dehqonchilik asboblari nomlarini ifodalovchi leksemalarni qoʻllanish doirasiga koʻra quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

a) qoʻshchilikka oid zamonaviy texnika nomlarini ifodalovchi leksemalar: **traktor, sepal, noʻpal, rokoʻl**;

b) qoʻshchilikka oid tarixiy asbob nomlariga oid leksik birliklar: **buyintiriq, amoch, quloq, oʻq, shamina, turkish, pechkashay**.

Donli mahsulotlar dehqonchilikning asosiy mahsulotlaridan biri boʻlganligi sababli unga taalluqli oʻlchov birliklarini ishlab chiqish va undan keng foydalanish dehqonlar va shu soha bilan shugʻullanuvchilar oldiga qoʻyildigan asosiy talablardandir. Gʻalla mahsulotlarining poya va donini ajratishda bir qator dehqonchilikka oid mehnat qurollaridan foydalaniladi. Ushbu asbob va vositalarni ifodalashda Shimoliy Afgʻoniston oʻzbek dehqonlari nutqida **shoxa, qayrogʻtosh, oʻroq (choʻb shoxa, temir shoxa), chigʻil, kurak, gʻalbur, qanor, juvoldoʻz, qavda, doʻrgʻa, galagov, boʻji, xirmontagi** kabi leksemalar ishlatiladi.

REFERENCES

1. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" 5 jildli. –Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
2. «А т т у хфатуз закияту филлуғатит туркия» нашрга тайёрловчи Муталлибов С. Тошкент. Фан. 1968. 279 Б.
3. "Oʻzbek tili soʻzligi" Nurulloh Oltoy. Afgʻoniston-Javzijon: 2007.
4. Amini, A. "SHIMOLIY AFGʻONISTON OʻZBEKLARI NUTQIDAGI DEHQONCHILIKKA OID HARAKAT FELLARINI IFODALOVCHI BIRLIKLAR." INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL 4.1 (2023): 9-15.
5. Ahmad, Amini Aziz. "SHIMOLIY AFGONISTON OZBEKLARI NUTQIDA DEHQONCHILIK ASBOBLARI NOMLARI VA ULARNING LISONIY TALQINI." Science and innovation 1.B2 (2022): 485-490.
6. Ahmad, Amini Aziz. "The Interpretation of Agricultural Words in " Baburnama". " JournalNX 7.12 (2021): 116-118.
7. Jamshid, Boʻriyev. "YOZUVCHI ERKIN AZAMNING OGZAKI NUTQQA XOS LEKSIK VA GRAMMATIK VOSITALARDAN USLUBIY FOYDALANISH MAHORATI." Евразийский журнал академических исследований 2, no. 1 (2022): 169-174.
8. Jamshid, Buriyev. "EXPRESSION OF DESCRIPTIVE ORAL UNITS IN THE WORKS OF ERKIN AZAM." In Archive of Conferences, pp. 80-83. 2021.
9. Farogat, Nurmurodova, and Buriyev Jamshid. "THE TRAGEDY OF FREEDOM." In Archive of Conferences, vol. 25, no. 1, pp. 172-174. 2021.
10. Бўриев, Жамшид. "МАХТУМҚУЛИ МИСРАЛАРИДА ГОʻЗАЛЛИК ТУШУНЧАСИ." NRJ 1, no. 3 (2024): 377-379.